

# **10-mavzu uchun slaydlar:**

**10-Mavzu: O`zbekiston ommaviy  
axborot vositalari va jamiyat  
axborot-psixologik xavfsizligining  
ta`minlanishi.**

# **10-mavzu uchun slaydlar:**

- Reja:
  - 1. Yangi axboriy texnologiyalar va zamonaviy jurnalistika.
  - 2. O`zbekiston OAV va jamiyat psixologik xavfsizligini ta`minlash muammolari.

# **10-mavzu uchun slaydlar:**

- Bugun butun insoniyat jamoa o`lchamigacha ixchamlashmoqda. Industrial jamiyat o`rniga, ommaviy kommunikatsiyalar va axborotning roli beqiyos darajada oshgan axborot jamiyatiga qadam qo`ydi.

# **10-mavzu uchun slaydlar:**

- Ilgari kishilar u yoki bu kanal tomonidan taklif etilgan ko`rsatuvlardan programmasi bilan cheklangan bo`lsa, bugun siz o`z ta`bingizga mos ravishda o`z dasturingizni tuzib olishingiz mumkin. Ya`ni, yangi informatsion texnologiyalar nafaqat jurnalistga, balki auditoriyaga ham erkinlikni taqdim etdi.

# 10-mavzu uchun slaydlar:

- Sotsiologlarning ta`kidlashicha: «ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy axborot qancha ko`p to`plansa, jamiyatning shu sohadagi taraqqiyoti shuncha tezlashadi. Jurnalistika shu sohadagi axborotlarni to`plash, qayta ishlash, sistemalashtirish va tahlil etish bilan shug`ullanar ekan, xulosa qilish mumkinki, jurnalistika qanchalik yuqori sifatga ega bo`lsa, o`ziga yuklangan vazifalarni to`liq bajaradi, jamiyat rivojlanish tendentsiyalarini belgilaydi va uning rejalarini ishlab chiqadi.

# **10-mavzu uchun slaydlar:**

- XX asrning oxirlarida Maykl Konnif aytgan ediki: «Amerika kundalik gazetalarining kuni bitdi, endilikda manzara butunlay o`zgardi». Gazetalar bugungi kunda elektron-axboriy inqilobning boshida turibdi.

# **10-mavzu uchun slaydlar:**

- Bugungi kunda an`anaviy davriy nashrlar bilan bir qatorda Onlayn jurnalistika samarali faoliyat ko`rsatmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy fikrni shakllantirish belgilovchi ta`sir o`tkaza oladigan yuzlab elektron gazeta va jurnallar faoliyat ko`rsatmoqda. Bu tendentsiya bundan keyin ham kuchayib boradi.

# **10-mavzu uchun slaydlar:**

- «Maykrosoft» tashkilotchisi Bill Geyts aytganidek, komp'yuter va Internet har bir kishi uchun imkon darajasida bo`ladi. Ya`ni bu texnikani olish darslik olishdan foydali va arzon bo`lib qoladi.

# **10-mavzu uchun slaydlar:**

- Yangi axboriy texnologiyalar bizning hayotimizda ijobiy rolni o`ynashi bilan birlgilikda, nomaqbul kimsalar va hattoki destruktiv xarakterdagi davlat tuzilmalarining nopok niyatlarini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

# **10-mavzu uchun slaydlar:**

- Respublikada o`tgan asr 90-yillari boshlarida 200 atrofida davriy nashrlar mavjud bo`lsa, bugungi kunda ularning miqdori 1000ga etdi. Jumladan, 680 gazeta, 194-jurnal, 4-milliy teleradiokompaniya, 34-teleradiostudiya, 7- kabelli audiovizual OAV, 4-axboriy agentlik.

# **10-mavzu uchun slaydlar:**

- 1996 yildan boshlab O`zbekiston jahon Internet tarmog`iga kirdi. 2006 yilga kelib bu butunjahon to`ridan foydalanuvchilar esa 1mln. 150 000 kishini tashkil etdi.

# **10-mavzu uchun slaydlar:**

- Tahririyat jamoalari OAV ta`sischilari hayotimizning og`riqli jihatlarini o`zlari ko`tarib chiqmasalar, mavjud ziddiyatlarning hal etilishiga yordam berishga intilmasalar, buni birinchi galda «o`zgalar» amalga oshirishlari mumkinligini anglab etishlari kerak.

# **10-mavzu uchun slaydlar:**

- O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov Oliy Majlis ikkala palatasining 2005 yil 28 yanvardagi qo`shma yig`ilishida ta`kidlagan ediki, OAV yo`lida auditoriyalari undan jamiyatni isloh qilish va yangilash yo`lida hokimiyat faoliyati va boshqaruv organlari faoliyatiga tanqidiy baholarni kutayotganlarini, dolzarb muammolarning mohirona tahlilini, to`siglarni engib o`tish yo`llarini ko`rsatishlarini kutayotganlarini ta`kidlab o`tdi.